

XOTIN-QIZLARNI IJTIMOYIY-SIYOSIY HAYOTGA JALB ETISHDAGI MUAMMOLAR

Ismatova Madina Tashbul qizi

Jizzax davlat pedogogika universiteti 2-bosqich magistranti

madina_ismatova95@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylanyotgan xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb qilishi, jamiyatdagi faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilishi kabi masalalar talqin qilingan.

Kalit so'zlar: Ayollar, ayollar daftari, ijtimoiy-siyosiy faollik, onalik va bolalik, inson huquqlari, ayollar huquqlari, oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlash, zo'ravonlik, kamsitilish.

Аннотация: В данной статье, которая становится одной из актуальных проблем сегодняшнего дня, вовлечение женщин в общественно-политическую жизнь, повышение их активности в обществе, создание им условий для реализации своих способностей и возможностей в различных сферах и отраслях, защита их права и законные интересы. Рассматриваются такие вопросы, как обеспечение соблюдения законности, всесторонняя поддержка материнства и детства.

Ключевые слова: Женщины, женская тетрадь, общественно-политическая активность, материнство и детство, права человека, права женщин, семья и системная поддержка женщин, насилие, дискриминация.

Annotation: In this article, which is becoming one of today's pressing issues, the involvement of women in social and political life, increasing their activity in society, creating conditions for them to realize their abilities and opportunities in various fields and industries, and to protect their rights and legal interests. Issues such as

ensuring compliance with the law, comprehensive support for motherhood and childhood are interpreted.

Key words: Women, women's notebook, socio-political activism, motherhood and childhood, human rights, women's rights, family and systematic support of women, violence, discrimination.

KIRISH

Dunyoning hech bir joyida o'zbek ayolidek tong otguncha bedor beshik tebratadigan, mehribon, kuyunchak ona bo'lmasa kerak. Binobarin, ayolni e'zozlash, unga oila tayanchi, millat tarbiyachisi sifatida ehtirom ko'rsatish bugun davlat siyosati darajasida qaralayotgani ham bejiz emas. Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko'rki bo'lgan xotin-qizlarni e'zozlash, ularga hurmat va ehtirom ko'rsatish xalqimiz uchun azal- azaldan buyuk qadriyat bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb qilish natijasida yuzaga kelayotgan muommolar va ularni ijobiy hal qilish, jamiyatdagi faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobilyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Vaholanki, ayollarning qonun oldidagi huquqlari buzilganda, inson huquqlari buzildi, deb ko'rib chiqilmagan taqdirda, Ayollarning inson zotiga mansubligi inkor qilingan bo'lar edi. Umuman olganda, ayollar huquqlari degan tushuncha ayollarga nisbatan zo'ravonlik, Ayollarning aynan ayol bo'lganligi bois ham ba'zi huquqlarda kamsitilayotganligi uchun inson huquqlarining alohida huquqlari sifatida shakllanishiga olib keldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ayollarning shaxsiy huquq va erkinliklarining kafolati bugungi kunda har bir rivojlangan mamlakat fuqarolari farovonligi ta'minlanganining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. O'zbekistonda ham bugungi kunda ayollarning huquq va erkinliklarini ta'minlash sohasida jadal islohotlar olib borilmoqda. Bu avvalo Respublika Konstitutsiyasida barcha fuqarolarning tengligi belgilab qo'yilganligini,



shuningdek, 18, 46, 63, 64, 65, 66-moddolari bilan bevosita ayollar huquqlarining konstitutsiyaviy kafolati mustahkamlanganligini, xalqaro hujjatlarda bo‘lgani kabi, ichki qonunchilikda ham jins belgisi bo‘yicha kamsitmaslik to‘g‘risidagi qoida birinchi o‘ringa chiqarilganligini ta’kidlash o‘rinlidir. O‘zbeklar hayotida qadimdan ayollar hamisha e‘zozlab kelingan. Mustaqillikka erishilgandan keyin ham dastlab an‘analarga sodiq qolgan holda, bu masalaga alohida e‘tibor qaratildi. O‘zbekistonda 1998-yilning «Oila yili», 1999 yilning «Ayollar yili», 2001 yilning «Ona va bola yili», 2012-yilning «Mustahkam oila yili», 2014- yilning «Sog‘lom bola yili», 2016-yilning «Sog‘lom ona va bola yili» 2017-yilning «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» deb e‘lon qilinishi shuningdek, 2017-yil 7-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tomonidan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha Haakatlar strategiyasining qabul qilinishi mamlakatimizda bu borada aniq maqsadga yo‘naltirilgan izchil siyosatni rejalashtirish tizimiga sifat jihatdan yangi yondashuvlar va yangi bosichda olib borilishiga yo‘l ochdi.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda bu ezgu qadriyat yanada mukammallik kasb etadi. Darhaqiqat, so‘nggi 3 oyda “ayollar daftari” ga kiritilgan 80 ming nafar xotin-qizning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi muammolari hal etildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, turmush sharoiti og‘ir ayollarning 32 ming nafari ish bilan ta‘minlandi. O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi va Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi rahbariyati boshchiligida Respublika ishchi guruhi tuzilib, barcha hududlarda ayollarni qiynayotgan ijtimoiy-siyosiy hayotdagi muammolar aniqlandi. Ushbu muammolar bo‘yicha manzilli ish olib borish uchun, yangi tizim - “Ayollar daftari” joriy etildi. Aniq raqamlarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, kambag‘allikka qarshi kurash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan salkam 17 ming nafar xotin-qizga amaliy yordamlar ko‘rsatildi, uy-joy sotib olish uchun, 1 ming 250 nafar xotin-qizlarga, qariyb 22 mlrd so‘mlik boshlang‘ich badallar to‘lab berildi. Birgina “Har bir oila — tadbirkor” dasturi doirasida 126 mingga yaqin ayollarga, imtiyozli kreditlar berildi. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qariyb 215 ming oilaga 6 trln so‘mdan ziyod kredit mablag‘lari ajratildi. Qariyb 55 ming nafar xotin-qizlar, tadbirkorlik va kasb-hunar markazlari tomonidan o‘qitildi, hunarmandchilik va kasanachilikka jalb etildi. “Besh muhim tashabbus” doirasida, chekka-chekka hududlarda tikuvchilik sexlari tashkil etilib, 10 ming nafar ayollar bandligi ta‘minlandi. Bunday ezgu ishlar ro‘yxatini ko‘p davom ettirishimiz mumkin.



Binobarin, ayollarning mehnat va turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan bunday misollarni yana ko‘plab keltirishimiz mumkin. Lekin o‘zining uy-joyiga, ish o‘rniga ega bo‘lgan har bir ayolning ortida oilasi, farzandlari, ota-onasi, yaqinlari borligini hisobga oladigan bo‘lsak, qancha xonadonga quvonch kirgani, qancha odamning ruhi ko‘tarilib, ularda hayotga, kelajakka ishonch paydo bo‘lgani biz uchun eng muhim natijadir. Ko‘rsatkichlarning o‘tgan yillardagi ko‘rsatkichlardan ortib borishi yurtimizda xotin-qizlarga bo‘lgan e‘tiborning yana bir pog‘onaga ko‘tarilganidan dalolatdir. 2022-yilda ham ushbu xayrli ishlar davom ettirilmoqda. Joriy yilning 7-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Unga ko‘ra, jamiyatda ayollarimizga bo‘lgan e‘tiborni eng quyi bo‘g‘ingacha, mahallagacha tushirib, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashning yaxlit tizimi yaratish ko‘zda tutilgan. Ta‘lim tizimida xotin-qizlar uchun yana bir qator keng imkoniyatlar yaratib beriladi.

Jumladan,

- doktorantura yo‘nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratiladi;
- yosh farzandi bor talaba-qizlarga masofaviy o‘qishga sharoit yaratiladi;
- yangi o‘quv yilidan boshlab magistraturada o‘qiyotgan qizlarning kontrakt pullari to‘liq byudjetdan qoplab berildi (23 ming nafar qizlarga 200 milliard so‘m);
- har bir viloyatda ehtiyojmand oila vakillari, ota yoki onasini yo‘qotgan 150 nafar qizlarning (jami 2,1 ming nafar) ta‘lim kontrakti mahalliy byudjetdan to‘lab berildi;
- har yili 50 nafar qizlar nufuzli xorijiy oliygohlarga bakalavr va 10 nafari magistraturaga yuborildi.

Bugun O‘zbekistonda 17 million 300 mingga yaqin xotin-qiz yashaydi. Respublikamizda mehnat bilan band aholining 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasida ayollarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligini ta‘minlash va sog‘ligi mustahkamlash bo‘yicha hayotga tadbiriq etilayotgan chora-tadbirlar xorijiy ommaviy axborot vositalarida ham keng yoritilmoqda. Bunga misol tariqasida Britaniyada nashr qilinadigan “Pulse UK” gazetasi o‘z sahifasida ushbu mavzuga bag‘ishlangan maqolani chop etdi va unda O‘zbekistonda ayollarga eng faxrli o‘rin berildi. Nashr 2014-yilda respublikaning barcha hududlarida ayollar uchun 468 ming 175 ta yangi ish o‘rinlari yaratilganini e‘tirof etdi. 2020-yil oxiriga kelib, O‘zbekiston tarixida ilk marotaba milliy parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos



darajaga yetdi va mamlakat parlamenti xotin-qizlar soni bo'yicha dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa ko'tarildi. Olib borilayotgan izchil islohotlar natijasida 2021-yilga kelib O'zbekistonda ish olib borayotgan tadbirkorlarning 35 foizini, fermerlarning 10 foizini ayollar tashkil etdi. yildan ayollarni ijtimoiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlash, bandligini ta'minlash, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan, ishsiz xotin-qizlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish maqsadida "Ayollar daftari" tashkil etildi.

MAQSAD VA VAZIFALARI

Maqolaning davriy doirasidan kelib chiqib, mazkur muammoning ilmiy- nazariy jihatdan dolzarbligini e'tiborga olib, milliy istiklol g'oyasi asosida yangicha tarixiy fikrlash nuqtai nazaridan 2017-2021-yillar sharoitida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida xotin-qizlarning o'rni masalasini tadqiq etish va umumlashtirishni maqolaning asosiy maqsadi qilib oldik. Umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda muammoni to'g'ri hal etish uchun quyidagi asosiy vazifalar belgilandi:

- O'zbek xotin-qizlaridagi milliy o'ziga xoslikning ularning ijtimoiy xayotga kirib kelishidagi o'rni;
- jamiyatning ma'naviy yangilanishida xotin-qizlar faolligi va ularning barkamol avlod tarbiyasidagi o'rni;
- O'zbekiston xotin-qizlarining sanoat qurilishidagi ishtiroki;
- xotin-qizlarining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy sohadagi muommolarini yechishga bo'lgan intilishlari;
- xotin-qizlarni ijtimoiy muhofaza etish muammolari;
- milliy ziyoli xotin-qiz kadrlarni tayyorlash;
- o'rganilgan aniq materiallarga asoslangan holda to'plangan tarixiy tajribani umumlashtirish natijasida xulosalar chiqarish, istiqloqlarning hozirgi bosqichida ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotga yordam beradigan amaliy taklif va tavsiyalar berish.

NATIJA

Mamlakatlar tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy hayotida tub burilish bo'lishiga zamin yaratmoqda. Inson huquqlari, uning sha'ni, qadr-qimmati, erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan islohotlar samarasi mintaqa mamlakatlarida turlicha natijalarni ko'rsatdi. Xususan, O'zbekistonda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi jihatidan barcha mehnat



resurslarining 48% tashkil etadi. 2013-yil holatiga ko'ra Markaziy Osiyoda mamlakatlarida siyosiy sohadagi ishtiroki parlamentdagi o'rinlari bo'yicha Tojikiston eng past ko'rsatkich- 14,7% ni tashkil qiladi. Qozog'iston- 23%, Qirg'iziston- 23% bilan farqlanadi. Bu ko'rsatkich O'zbekiston Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tarkibida 22%, Senatda 15% ni ayollar tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlar bugungi kunda ijobiy tomonga o'zgarib xususan, O'zbekistonda Qonunchilik palatasida 32%, Senatda 25%ga ko'tarilgan. Shunga doir islohotlar natijalari jamiyatda hukm suryotgan farovonlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ayollar huquqlarini ta'minlash tashkiliy – huquqiy mexanizmlarni va ularni amaliyotda amalga oshirish tartibotlarini yanada kuchaytirish, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining bu boradagi sa'y-harakatlarini birlashtirish, ayollar huquqlarini himoya qilish masalalari bo'yicha aholining huquqiy madaniyatini oshirishga bog'liq. O'zbekiston Konvensiya doirasida o'z zimmasiga olgan barcha majburiyatlarini izchil bajarishda davom etadi va kelajakda ham BMTning ayollar manfaatlariga oid barcha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi va davlatimiz tomonidan xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning iste'dod va intilishlarini yuzaga chiqarish uchun barcha sharoit yaratish borasida izchil ishlar olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 17-avgustdagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2018-yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini rivojlantirish to'g'risida"gi PF-5325 sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2019-yil 7-martdagi "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlari yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
4. Saidov A.X Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. – T.: Adolat. 2004.
5. A. Saidov. "Ayollar huquqlari bo'yicha bo'yicha xalqaro va milliy qonun hujjatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari", T.:1999 y. b-82



6. Jo'rayeva N.D. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida xotin-qizlarning o'rni (XX asrning 20-30-yillari). Diss...t.f.n –T.:2004 y. b-23

7. KUN.UZ. "Mamlakatning demokratik yangilanishi va modernizatsiyada ayollarning roli: O'zbekiston tajribasi va xalqaro amaliyot" konferensiyasi. T.Norboyeva. Toshkent-2018 <http://central.asia-news.com-markaziy-osiyo-mamlakatlarida-xotin-qizlar-xalqaro-kuni-nishonlanadi-asia-news.com> (so'nggi murojaat-02.02.2020)

8. Central.asia-news.com. Xalqaro xotin-qizlar kuni Markaziy Osiyoda inson huquqlariga e'tiborni yangiladi. <https://central.asia-news.com/ayollar-huquqlari> (so'nggi murojaat-06.03.2020)

9. Daryo.uz. Siyosiy sohadagi ayollar mavqeyi. <https://daryo.uz/2013/08/19/o'zbekiston-parlamentdagi-ayollar-soni-bo'yicha-mdh-davlatlari-orasida-tortinchi-o'rinni-egalladi> (so'nggi murojaat-09.02.2020)

